

Boris Snegurenkovning “Yoz qayerga berkinadi” ertagi navbatma-navbat o‘qitiladi. Ertak yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. Nega Yoz berkinishga majbur bo‘libdi?
2. Yoz qayerga berkinibdi?
3. “So‘z qotishibdi” deganda nimani tushundingiz?
4. Nima uchun odamlar “Bahor keldi – yoz keldi”, deyishar ekan?

Matndagi notanish so‘zlar ustida lug‘at ishi o‘tkaziladi.

Ta’qib qilmoq – ketidan quvmoq, izidan tushmoq.

Bo‘rtmoq – ko‘karib chiqmoq.

Ranjimoq – xafa bo‘lmoq.

Yaxlatmoq – muzlatmoq.

“Tanlab o‘qish” mashqi.

Quyidagi so‘zlar bilan boshlanadigan gaplar topib o‘qiladi.

Bu juda ham... Yoz o‘zini... O‘shandan buyon...

Mashq daftari bilan ishlash.

Gaplar o‘qiladi va voqealar ketma-ketligi aniqlanadi. Yoz faslida tabiatda qanday o‘zgarishlar bo‘lishi yoziladi. Darslikda berilgan topshiriqlar bajariladi. Bo‘g‘inlardan maqollar tuzib o‘qiladi.

Tez aytish aytiriladi.

IV. Darsni yakunlash va baholash. (3 daqiqa)

- Yoz fasli haqida nimalarni bilib oldingiz?
- Sizga nima qiziq bo‘ldi?

V. Uyga vazifa. (2 daqiqa)

Ertakni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering. Yoz deganda ko‘z oldingizga nimalar keladi? Javobingizni gulbarglarga yozib, rasmini chizing.

6-Mavzu: Oltin kuz

Dars maqsadi:

- Shuratning “Kuz” she’ri bilan tanishtirish;
- Kuz faslida tabiatdagi o‘zgarishlar haqida ma’lumot berish;
- To‘g‘ri va ifodali o‘qishga o‘rgatish;

- Tevarak-atrofdagi olamga qiziqish va u haqida ko'proq bilishga intilishini oshirish.

Tayanch so'zlar: kuz, bog, mevali daraxt.

Didaktik materiallar: mavzuga oid rasmlar.

Darsning borishi:

I. Darsning kirish qismi. (3 daqiqa)

Darsni tashkillashtirib olish.

Faollashtiruvchi mashq: *Berilgan so'zni teskarisiga o'qing.*

DARAXTZOR

II. O'tilganlarni takrorlash. (7 daqiqa)

Hikoyani o'qitiladi va mazmunini so'zlab beriladi.

III. Darsning asosiy qismi. (30 daqiqa)

Amaliy topshiriq.

Topishmoq o'qiladi va javobi topiladi.

Daraxtlarning barglari,
Rang olar oltin misol.
Qay, faslda, ayt, Muslim,
Yuz beradi shunday hol?!

Muhokama uchun savol:

- Topishmoqning javobini topishda qaysi so'zlarga e'tiboringizni qaratdingiz?

Mavzuni tushuntirish.

Suhbat o'tkaziladi.

- Kuzda tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi?

- O'ylab ko'ring, nega bu faslni oltin rangga o'xshatamiz? Fikringizni izohlang.

O'quvchilar fikri tinglanadi va to'ldiriladi.

Matn ustida ishlash.

She'r muallifi haqida qisqacha ma'lumot beriladi.



Shuhrat (asl ismi va familiyasi — G'ulom Aminjonovich Alimov) Toshkent shahrida hunarmand oilasida tavallud topgan. O'zbekiston xalq yozuvchisi bolalar uchun romanlar, qissalar, pyesalar, asarlar yozgan. Shuhratning ko'plab asarlari xorijiy tillarga tarjima qilingan.

Shuhratning "Kuz" she'ri o'quvchilarga navbatma-navbat o'qitiladi. She'r matni yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. She'r kimning tilidan aytilgan?
2. Shoir bog'ni qanday tasvirlayapti?
3. Sizningcha, nima uchun kuzda daraxtlarning bargi to'kiladi?
4. She'rda yana qaysi fasllar tilga olingan?
5. Nima sababdan shoir bu fasllarni tilga olgan deb o'ylaysiz? Fikringizni izohlang.
6. She'rdagi "ko'k" so'zining o'rniga yana qanday so'zni ishlatga bo'ladi?
7. "Kuz faslining ne'matlari" deganda nimani tushunasiz? Misollar keltiring.

Lugat ishi:

multillar – zo'rg'a ko'rinadigan.


qirov – ko'karib chiqmoq.

bardosh – chidam, sabr, toqat.

chog' – vaqt, payt, kez, on.

momiq – yumshoq

She'rni o'quvchilar ichda o'qishadi va she'r matnini gaplar bilan ifodalashadi. Maqollarni o'qib va mazmunini izohlashadi.



Mashq daftari bilan ishlash. O'quvchilar turli shakllar ichiga kuz faslida tabiatda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni yozishadi.

"Ma'nodoshini top" mashqi.

She'r matnidan "erta, barg, issiq" so'zlariga ma'nodosh so'zlar topiladi.

IV. Darsni yakunlash va baholash. (3daqiqqa)

- Dars sizga yoqdimi?
- Kuz fasli haqida nimalarni bilib oldingiz?
- Darsda nimalarni bajardik?

V. Uyga vazifa. (1 daqiqqa)

She'rni yod oling.